

**Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Orolbo‘yi havzasida suv resurslarini
iqlim o‘zgarishiga mos holda boshqarish” loyihasi bo‘yicha
MA’LUMOT**

1. Tashabbuskor va loyiha nomi – O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Orolbo‘yi havzasida suv resurslarini iqlim o‘zgarishiga mos holda boshqarish” loyihasi.

2. Loyihani amalga oshirish uchun asos – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-sentabrdagi PQ–381-sonli qarori.

3. Loyiha maqsadi – Loyiha doirasida jami 192 ming gektar (Qoraqalpog‘iston Respublikasida 100 ming, Xorazm 29 ming, Buxoro 44,1 ming va Surxondaryo viloyatlarida 18,6 ming gektar) sug‘oriladigan yerlarning suv ta‘minoti yaxshilanadi va foydalanishdan chiqqan jami 10,0 ming gektar yerlar qayta foydalanishga kiritiladi.

4. Loyihaning amalga oshirish muddati – 2022–2029 yillar.

5. Loyiha amalga oshiriladigan hududlar – birinchi bosqichda Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida, ikkinchi bosqichda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida amalga oshiriladi.

6. Loyihaning umumiy qiymati – 194,9 mln. AQSh dollari shu jumladan – OTB qarz mablag‘i - 150 mln. dollar, O‘zbekiston Respublikasi ulushi – 40,2 mln. dollar. Shu jumladan, 26,6 mln. dollar qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish va bojxona bojidan ozod etish shaklida; grant mablag‘lari – 3,3 mln. dollar; fermerlar ulushi (tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy qilishda 50 foiz subsidiyadan tashqari qismi) – 1,4 mln. dollar.

7. Loyihadan kutilayotgan natijalar:

“Jondor” va “Bobotog” kanallarini qayta tiklanishi natijasida, Buxoro va Surxondaryo viloyatlaridagi jami 62 726 gektar sug‘oriladigan yer maydonlariga barqaror suv yetkazib berish samaradorligi oshirilib, suv tanqisligi yillarida foydalanishdan chiqib ketgan 9 526 gektar maydonlarni qishloq xo‘jaligiga foydalanishga qaytariladi.

“Jondor” va “Bobotog” kanallarining 47,71 km qismlarini beton qoplamalari bilan qoplanishi, sug‘orish tizimining samaradorligini Jondor kanalida 88 foizgacha va Bobotog‘ kanalida 89 foizgacha oshiriladi.

Shuningdek, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida 2855 gektar yerda quvurli sug‘orish tarmog‘ini qurish, 1597 km kollektor drenaj tarmoqlarini tozalash, 1000 gektar yerda tomchilatib sug‘orish texnologiyalari, kanallarda 282 ta gidrotexnika inshootini qayta tiklash 86 ta SCADA tizimini joriy qilish ishlari bajariladi.

Pudratchi/etkazib beruvchi:

Buxoro viloyati bo‘yicha:

CAWRMP-ICW-01-son “Jondor magistral kanalini modernizatsiya qilish va Jondor kanalidagi inshootlarni qayta tiklash” “Lot 1: Jondor kanalidagi inshootlarni qayta tiklash”.

Pudratchi: “China Geo-Engineering Corporation” (Xitoy).

Shartnoma imzolangan sana: 27.12.2022-y.

“Jondor” kanalidagi 81 dona gidrotexnika inshootni rekonstruksiya qilish belgilangan bo‘lib, hozirgi kunda barcha ishlar yakunlandi.

CAWRMP-ICW-01-son “Jondor magistral kanalini modernizatsiya qilish va Jondor kanalidagi inshootlarni qayta tiklash” “Lot 2: Jondor-1 (PK 0+00 - PK 278+00) va Jondor-3 (PK-0+00 – PK-185+00) kanallarini qayta tiklash”.

Pudratchi: “China Geo-Engineering Corporation” (Xitoy).

Shartnoma imzolangan sana: 27.12.2022 y.

Mazkur obyekt bo‘yicha qurilish-montaj ishlari 90 foizga bajarilgan bo‘lib, qoldiq ish hajmlarini yakunlash ishlari olib borilmoqda.

Lot-2 bo‘yicha “Jondor-1” kanalining 27,5 km qismida 886 ming m³ tuproq ishlari bajarish belgilangan bo‘lib, amalda 735,9 ming m³ tuproq ishlari bajarilgan. “Jondor-3” kanalining 18,5 km qismida 24 ming m³ tuproq ishlari bajarish belgilangan bo‘lib, amalda 24 ming m³ tuproq ishlari bajarilgan.

CAWRMP-ICW-01-son “Jondor magistral kanalini modernizatsiya qilish va Jondor kanalidagi inshootlarni qayta tiklash” “Lot 3: Jondor-2 (PK-0+00 – PK-366+54) kanalini qayta tiklash”.

Pudratchi: “China Geo-Engineering Corporation” (Xitoy).

Shartnoma imzolangan sana: 27.12.2022 y.

Loyiha bo‘yicha “Jondor-2” kanalining 36,4 km qismida 1571 ming m³ tuproq ishlari bajarish belgilangan bo‘lib, amalda bugungi kungacha 1044,79 ming m³ tuproq ishlari bajarildi, loyiha bo‘yicha kanalning betonlashtirish belgilangan 27,5 km qismida 106,394 m³ beton olish belgilangan bo‘lib, amalda bugungi kungacha 13,7 km qismi betonlashtirildi, 52,310 ming m³ beton ishlari bajarildi.

CAWRMP-ICW-03-son “Jondor kanalining xo‘jalikararo va xo‘jalik ichidagi (“Shaxrislom” va “Shaxrislom-1”) sug‘orish tizimini modernizatsiya qilish”

Pudratchi: “Me’mor Kompleks” MChJ (O‘zbekiston).

Shartnoma imzolangan sana: 24.05.2024-y.

Kanallarning loyihalash ishlari yakunlanib, davlat ekspertizasidan ijobiy xulosa olingan.

Kanalda 162,958 ming m³ tuproq ishlari, 6003 m³ beton ishlarini bajarish belgilangan bo‘lib, kanalning 7,0 km qismida 74,3 ming m³ tuproq ishlari, 16870 m² geotekstil to‘shash ishlari bajarildi.

Bugungi kungacha kanalda jami 1709 m³ beton olingan.

Surxondaryo viloyati bo‘yicha:

CAWRMP-ICW-02-son “Bobotog‘ magistral kanalini modernizatsiya qilish va Bobotog‘ kanalidagi inshootlarni qayta tiklash”.

Pudratchi: “China Geo-Engineering Corporation” (Xitoy).

Shartnoma imzolangan sana: 23.12.2022-y.

“Bobotog‘” kanali bo‘yicha hozirda kanalda 11030 m³ beton ishlari va 528 ming m³ tuproq ishlari amalga oshirilgan.

Kanalda suv mavjudligi sababli suvga bog‘liq bo‘lmagan ishlar

bajarilmoqda.

CAWRMP-ICW-04-son “Bobotog‘ kanalining xo‘jalikararo va xo‘jalik ichidagi (“MK-1-1”) sug‘orish tizimini modernizatsiya qilish, shu jumladan yopiq sug‘orish tizimini qayta tiklash”.

Pudratchi: “Me‘mor Kompleks” MChJ (O‘zbekiston).

Shartnoma imzolangan sana: 15.11.2024-y.

Mazkur shartnoma bo‘yicha MK-1-1 kanalining dastlabki 6 km qismini betonlash va ulardagi 26 dona gidrotexnika inshootini qayta tiklash bo‘yicha loyihachilar jalb etilib, kanal ishchi loyiha hujjatlari ishlab chiqildi va loyiha konsultanti tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari diametri 200 mm bo‘lgan 47,3 km uzunlikdagi metall va polietilen quvurlari yotqiziladi.

Joriy holati – Konsultant tomonidan loyihaning 2-bosqichini amalga oshirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Kegeyli” hamda Xorazm viloyatidagi R-8 magistral kanallarini modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan.

Loyihaning 2-bosqichi uchun ishlab chiqilgan TIAsi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-sonli qaroriga muvofiq kelishish uchun joriy yil 30-iyunda Investitsiyalar, sanoat va savdo hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklariga kiritildi.